

PAPER

UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA O'QITUVCHINING KREATIV KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Urakova Shoxida Keldiyarovna^{1*}

¹ Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tatqiqotchisi

* Urakova@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada uzlusiz kasbiy rivojlanish doirasida o'qituvchining kreativ kompetentligini takomillashtirishning nazariy asoslari tahlil qilingan. Muallif kreativ kompetentlik tushunchasini zamonaviy ta'lim paradigmalarini asosida izohlaydi hamda uning shakllanishida pedagogik refleksiya, innovatsion yondashuvlar, motivatsiya va sotsiokultural omillar hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi. Maqolada kompetentlikni rivojlanirishga xizmat qiluvchi bosqichlar, nazariy model va amaliy yo'nalishlar asoslab berilgan. Natijada, o'qituvchining ijodiy salohiyati ta'lim tizimining sifat ko'rsatkichiga aylanishi asoslab beriladi.

Key words: kreativ kompetentlik, uzlusiz kasbiy rivojlanish, innovatsion yondashuv, refleksiya, o'qituvchi shaxsi, pedagogik madaniyat, nazariy asoslar.

Bugungi kunda ta'lim tizimida yuz berayotgan tub islohotlar o'qituvchidan faqatgina bilim manbai sifatida emas, balki ijodiy fikrlaydigan, o'z ustida ishlaydigan, yangiliklarni tatbiq eta oladigan, ijtimoiy-ma'naviy o'zgarishlarga moslashuvchan shaxs sifatida faoliyat yuritishni talab qilmoqda. Ayniqsa, o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlanirish masalasi zamonaviy ta'lilda eng dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Bu kompetentlik o'qituvchining didaktik mahoratini oshirish, o'quvchilar bilan interaktiv muloqotni yo'nga qo'yish, mustaqil fikrllovchi shaxslar yetishtirishda muhim o'rinn tutadi.

O'qituvchi faoliyatida kreativ kompetentlik deganda uning yangicha yondashuvlar, ijodiy fikr, muammoni turlicha ko'ra olish, shuningdek, mavjud resurslarni noodatiy tarzda qo'llay bilish salohiyati tushuniladi. Bu kompetentlikning shakllanishi esa faqat boshlang'ich pedagogik tayyorgarlik doirasida emas, balki uzlusiz kasbiy rivojlanish orqali yuzaga chiqadi. Shu bois, ushbu maqolada kreativ kompetentligini takomillashtirishga xizmat qiluvchi nazariy yondashuvlar, metodologik asoslar va ularning uzlusiz rivojlanish jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi.

Kreativ kompetentlik — bu murakkab pedagogik holatlarda moslashuvchan fikr yurita olish, ijodiy muhit yaratish,

o'quvchilarning o'quv faoliyatini ilhomlantira oladigan shaxsiy salohiyatning bir ko'rinishidir. U o'z ichiga bir necha komponentlarni oladi: kreativ tafakkur, yangilikka ochiqlik, tashabbuskorlik, didaktik moslashuvchanlik, refleksiya, o'zini tahlil qila olish qobiliyati. Ushbu sifatlar o'qituvchining individual pedagogik uslubi va kasbiy faoliyatining muvaffaqiyatli kechishini belgilaydi.

Nazariy jihatdan, kreativ kompetentlik kognitiv psixologiya, sotsiokultural nazariya, konstruktivizm hamda zamonaviy kompetent yondashuvlar asosida talqin qilinadi. Kognitiv yondashuv bu kompetentlikni shaxsning fikrlash jarayonidagi moslashuvchanlik, assotsiativ tafakkur, muammoga turlicha yechim topish layoqati sifatida ko'radi. Lev Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasiga ko'ra, kreativlik ijtimoiy tajriba va madaniy aloqalar orqali shakllanadi. Shu asosda aytish mumkinki, o'qituvchining kreativ kompetentligini rivojlanirishda shaxsiy o'rganish, jamoaviy faoliyat va madaniy iqlim muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'lim nazariyalarida kompetentlikka yo'naltirilgan yondashuv asosiy metodologik poydevorga aylanmoqda. Bu yondashuvda o'qituvchi nafaqat bilimga ega bo'lgan shaxs, balki bilimni o'quvchilar faoliyatida qo'llay oladigan, shaxslararo muloqotga kirisha oladigan, muammolarni hal qila oladigan,

moslashuvchan va reflektiv pedagog sifatida qaraladi. Shuning uchun kreativ kompetentlikni shakllantirishda ham nazariy asoslar, ham metodik ko'rsatkichlar uyg'un holda olib borilishi lozim.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayoni esa bu kompetentlikni shakllantirish va chuqurlashtirish uchun zamin yaratadi. Bu jarayon shunchaki malaka oshirishdan iborat bo'lib qolmay, o'qituvchining shaxsiy va kasbiy o'sishiga xizmat qiluvchi keng ko'lamli faoliyatlar majmuasidir. Zamonaviy dunyoda o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o'z bilimini doimiy ravishda yangilab boruvchi, o'rganishga qodir, o'zgarishga tayyor va o'zini rivojlantiruvchi mutaxassis sifatida namoyon bo'ladi.

Kreativ kompetentlikni nazariy jihatdan tahlil qilganda, u faqat qobiliyat yoki iste'dod emas, balki rivojlanitiladigan va shakllantiriladigan fazilat ekanligi ayon bo'ladi. Bu o'rinda o'qituvchining faoliyatida reflektivlik muhim ahamiyat kasb etadi. Refleksiya — bu o'qituvchining o'z faoliyatiga ongli tarzda qayta qarashi, tahlil qilishi va zarur bo'lsa, uni yangilashi demakdir. Ushbu reflektiv yondashuv pedagogik tajribani chuqur anglash, xatolardan saboq chiqarish va professional o'sish sari qadam tashlash imkonini beradi.

Shuningdek, kreativ kompetentligini nazariy asoslarda tahlil etishda pedagogik innovatsiyalar va ularning o'qituvchi shaxsiga ta'siri alohida o'rganilishi kerak. Innovatsion pedagogika o'qituvchini yangicha o'qitish usullari, texnologiyalari va strategiyalar bilan qurollantiradi. Bu esa o'z navbatida, uning kreativ salohiyatini ochishga, o'z pedagogik uslubini rivojlantirishga va ijodiy yondashuvga asoslangan dars berishga yo'l ochadi.

Kreativ kompetentlikni shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, faoliyatga asoslangan o'rgatish, muammoli o'qitish va kooperativ yondashuv kabi metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy jihatdan bu metodlar pedagogik faoliyatda o'qituvchining mustaqil fikrleshini, tanqidiy yondashuvini va o'zining innovatsion yechimlarini ishlab chiqishini rag'batlantiradi. Bu jarayonda o'qituvchi o'zining kasbiy rolini yangicha anglaydi, o'quvchilarning rivojlanishini shunchaki kuzatuvchi emas, balki bu rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi shaxsga aylanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash kerakki, kreativ kompetentlikni takomillashtirish masalasi faqatgina metodik mashg'ulotlar yoki dars jarayonida qo'llaniladigan usullar bilan bog'liq emas. Bu — o'qituvchining butun kasbiy hayot faoliyatini qamrab oladigan, uning shaxsiy o'sishini, ijtimoiy faolligini, pedagogik e'tiqodini ham shakllantiradigan murakkab tizimdir. Shu sababdan, uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayoni faqat bilim va ko'nikmalarni oshirish emas, balki o'qituvchining kreativligini ochishga, kasbiy motivatsiyasini kuchaytirishga, o'z-o'zini anglashga xizmat qilishi kerak.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, kreativ kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari o'qituvchining pedagogik faoliyatga bo'lgan qarashini yangilash, kasbiy mas'uliyatini chuqur anglash va o'z-o'zini rivojlantirishga intilish motivatsiyasini mustahkamlashga qaratilgan. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim sifatini yaxshilash, o'quvchilarda mustaqil fikrlesh qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek, innovatsion yondashuvlarni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilishga olib keladi. Kreativ kompetentlik — bu shunchaki qobiliyat emas, balki pedagogik madaniyatning zamonaviy shaklidir. U o'qituvchining kasbiy imidji, uning professional identifikatsiyasi va ijtimoiy ta'sirchanligini belgilovchi omildir.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonida ushbu kompetentlikni nazariy jihatdan chuqur tahlil qilish, uni rivojlaniruvchi omillarni aniqlash, metodologik asoslarini ishlab chiqish muhim ilmiy vazifadir. Kreativ kompetentligini shakllantirish nazariyasi har bir o'qituvchining shaxsiy rivojlanish modeli bilan bog'liq bo'lib, u individual ehtiyojlar, motivatsion omillar, faoliyat muhitini va ijtimoiy madaniy sharoit bilan chambarchas aloqador.

Ta'limning global tendensiylariga e'tibor qaratsak, ilg'or mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadi, o'qituvchilarni yangilikka tayyorlash, kreativ fikrllovchi va doimiy o'rganuvchi shaxs sifatida shakllantirish — ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy yo'nalish hisoblanadi. Bu borada Finlandiya, Singapur, Kanada kabi mamlakatlarning tajribalari shuni isbotlaydiki, o'qituvchilar uchun individual o'sish rejali, mustaqil o'rganish modullari, tadqiqot faoliyatiga jalb etish tizimlari kreativ kompetentligini samarali rivojlaniruvchi vositalardir.

Shu jihatdan olib qaraganda, bizning ta'lim tizimimizda ham kreativ kompetentlikni rivojlanirish bo'yicha nazariy va amaliy asoslar puxta ishlab chiqilishi lozim. Bu borada bir nechta yo'nalishda ish olib borish muhim:

Birinchidan, pedagogik oliyogohlar darajasida kreativ pedagogik kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi fanlar, modullar va amaliy mashg'ulotlar tizimi yaratilishi kerak. Hozirda ko'plab olyi ta'lim muassasalarida metodikaga urg'u beriladi, biroq ijodiy yondashuvlar va muammoni nooddati hal qilish ko'nikmalari sust rivojlanmoqda. Ikkinchidan, amaliyotchi o'qituvchilar uchun mo'ljallangan uzluksiz kasbiy rivojlanish dasturlariga kreativlik, innovatsion pedagogika, raqamli texnologiyalar asosida o'qitish kabi yo'nalishlar kiritilishi lozim. Ularning bilimlari faqat yangilanmasligi, balki o'zgarayotgan pedagogik haqiqatga mos ravishda qayta formatlanishi kerak.

Uchinchidan, o'qituvchining kasbiy faolligini rag'batlantiruvchi ijtimoiy va ma'naviy mexanizmlar kuchaytirilishi zarur. Kreativ kompetentlik faqat nazariy bilim emas, balki amaliy tajribalar, ilhom, qulay muhit, ichki motivatsiya bilan o'sadigan sifatdir. Shu boisdan, har bir o'qituvchining o'z pedagogik faoliyatini baholash, muvaffaqiyatli loyihibar bilan bo'lishish, innovatsion darslarni ommalashtirish imkoniyatlari yaratilishi kerak.

To'rtinchidan, ta'lim tashkilotlarda ijodiy muhit shakllantirilishi, eksperimental va loyiha asosida ishlovchi guruhlar faoliyati yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiqdir. Har bir mакtabda o'qituvchining tajribasini sinovdan o'tkazadigan, yangi metodlarni ishlab chiqadigan va ularni real darslarga integratsiya qiladigan ijodiy laboratoriyalar faoliyat yuritishi zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, uzluksiz kasbiy rivojlanishning nazariy asoslari o'qituvchining shaxsiy o'sishiga yo'naltirilgan, pedagogik refleksiyani kuchaytiradigan, ijodiy yondashuvga asoslangan bilimlarni shakllantiradigan tizim sifatida talqin qilinadi. Kreativ kompetentlik esa bu tizimning eng muhim natijasi bo'lib, o'qituvchining zamonaviy ta'limdag'i or'nnini aniqlab beradi.

Kreativ kompetentlikni shakllantirish va rivojlanirishda pedagogik innovatsiyalarni nazariy asoslash alohida e'tiborni talab qiladi. Chunki innovatsion yondashuvlar orqali o'qituvchida ijodiy tafakkur shakllanadi, u turli pedagogik vaziyatlarga kreativ javob topishga intiladi. Bu jarayon, bir tomonдан, o'qituvchining shaxsiy intellektual faolligiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomonidan, mavjud ta'lim tizimining uni rag'batlantira olish imkoniyatiga ham bevosita ta'sir etadi. Aynan shu nuqtada nazariy asos sifatida "o'rganishga yo'naltirilgan kasbiy madaniyat" konsepsiyasini kiritish mumkin. O'rganishga yo'naltirilgan kasbiy madaniyat — bu o'qituvchining o'z tajribasini qayta ko'rib chiqishi, bilimni amaliyot bilan uyg'unlashtira olishi, ijtimoiy tahlilga tayangan holda o'z faoliyatini yangilashga intilishidir. Bu madaniyat o'z-o'zini tahlil qilish, o'zini baholash va kasbiy fikrleshga asoslanadi. Nazariy jihatdan qaralganda, bunday yondashuv kreativ kompetentlikning asosiy o'suv muhitini tashkil qiladi. Unda faqat tashqi ta'sirlar emas, balki ichki motivatsiya, o'zini rivojlanirishga bo'lgan ehtiyoj ham harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, kreativ kompetentligini shakllantirishda motivatsion omillar nazariy jihatdan chuqur o'rganilishi

zarur. Motivatsiya — bu o'qituvchining kasbiy faoliyatga ongli yondashuvini ta'minlovchi ichki psixologik holatdir. Ushbu jarayon mas'uliyat, maqsadlilik, o'z-o'zini anglash, kasbiy ma'nnaviy qadriyatlar kabi tarkibiy qismlar bilan uzviy bog'liq. Kreativ kompetentlik motivatsiyasiz rivojlanmaydi, u izlanishga, yangilikka ochiqlik va sinovlardan qo'rmaslik ruhiyatiga tayanadi. Shunday ekan, ushbu kompetentlikni nazariy jihatdan chuqurroq talqin qilish uchun motivatsion pedagogika konsepsiyalarini integratsiyalash lozim.

Zamonaviy pedagogik tahlillarda kreativ kompetentlik ijtimoiy tajribaning mahsuli sifatida ham ko'rildi. Bu yondashuvga ko'ra, o'qituvchi o'z faoliyatida boshqa mutaxassislar bilan muloqotda bo'ladi, tajriba almashadi, jamoaviy bilim ishlab chiqish jarayoniga kirishadi. Shu bois, kreativ kompetentlikni shakllantirish nazariyasi ijtimoiy hamkorlik, pedagogik kommunikatsiya va kooperativ o'rganish bilan ham uzviv bog'liq. Bu jihatdan, o'qituvchi nafaqat o'rganuvchi, balki bilim yaratuvchi shaxsga aylanishi kerak. Kreativ kompetentligini takomillashtirishning nazariyi asoslarini yoritishda yana bir muhim tamoyil — bu o'qituvchining "kasbiy refleksiya madaniyat"dir. Bu madaniyat shunchaki o'z faoliyatini baholash emas, balki unga chuqur tahvililiy yondashish, uni rivojlantirishga qaratilgan strategik qarorlar qabul qilish, o'z kasbiy yo'lini ongli ravishda boshqarish ko'nikmasini anglatadi. Kasbiy refleksiya — bu nazariy bilimsizlikni amaliy to'siqqa aylantirmaslik uchun zarur ichki boshqaruv tizimidir.

Nazariy jihatdan olib qaralganda, kreativ kompetentlik inson salohiyatini ochishga xizmat qiluvchi vosita sifatida ham talqin qilinadi. Bu salohiyatning ochilishi esa ko'p jihatdan ta'llim muhitining sifati, rahbarning yondashuvi, jamoaviy madaniyat, va o'qituvchining mustaqil qarorlar qabul qilish imkoniyati bilan belgilanadi. Shu sababli, kreativ kompetentlikni rivojlantirish nazariysi o'qituvchining kasbiy avtonomiyasini, ya'ni mustaqil fikrash va faoliyat yuritish huquqini himoya qiluvchi tamoyillarga ham asoslanishi lozim.

Nazariy asoslar nuqtai nazaridan qaralganda, kreativ kompetentligini takomillashtirishda uchta muhim bosqichni ajratish mumkin: birinchisi — shaxsiy kreativlikni anglash va aniqlash; ikkinchisi — kreativ tafakkurni o'stiruvchi shart-sharoitlarni shakllantirish; uchinchisi — kreativ yondashuvni amaliy faoliyatda tizimli tatbiq etish. Bu bosqichlar o'zaro integratsiyalashgan holda harakat qilganda, kreativ kompetentligining real natijalarini ko'zga ko'rindisi.

Nazariy asoslarning amaliy qiymatini oshirish uchun esa pedagogik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydigan, refleksiyani rivojlantiruvchi va o'qituvchini pedagogik sub'ekt sifatida anglaydigan yangi ta'llim siyosati zarur. Bu siyosat o'qituvchini buyruqni bajaruvchi emas, balki pedagogik qarorlar qabul qiluvchi, o'quvchilar uchun individual ta'llim strategiyalarini ishlab chiquvchi, o'z kasbiy rivojlanishiga mas'ul shaxs sifatida ko'radi.

Shu tariqa, uzlksiz kasbiy rivojlanish jarayonida o'qituvchining kreativ kompetentligini takomillashtirish nazariy jihatdan puxta asosga ega bo'lib, u zamonaviy ta'llimning asosiy strategik yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu kompetentlikni rivojlantirish orqali o'qituvchi o'z kasbiy hayotining ijodkori, ta'llim sifatining kafolatchisi va jamiyatning madaniy rivojlanishida faol ishtirokchiga aylanadi.

Xulosa o'rniда shuni ta'kidlash joizki, o'qituvchining kreativ kompetentligini rivojlantirish uzlksiz kasbiy ta'llimning eng zamonaviy va strategik yo'nalishidir. Bu kompetentlikni nazariy jihatdan asoslash esa ta'llim sifatini oshirish, o'qituvchi shaxsini kompleks yondashuv asosida rivojlantirish, zamonaviy kompetensiylar majmuasini shakllantirishga xizmat qiladi. Demak, kreativ kompetentlik — bu ta'llimda raqobatbardoshlik, sifat va barqarorlikning asosi, o'qituvchining esa kasbiy yetuklik darajasini belgilovchi mezondir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- Abdullaeva M. Pedagogik innovatsiyalar va kreativ yondashuvlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. – 180 b.
- Anderson L.V., Krathwohl D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 2001. – 352 p.
- Darling-Hammond L., Bransford J. Preparing Teachers for a Changing World: What Teachers Should Learn and Be Able to Do. – San Francisco: Jossey-Bass, 2005. – 640 p.
- Davletova N.S. Kasbiy faoliyatda kreativ fikrash va innovatsion kompetensiylar. – Toshkent: Innovatsiya, 2021. – 176 b.
- Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2016. – 320 p.
- Islomova D.X. Zamonaviy o'qituvchining kasbiy rivojlanish strategiyalari. – Toshkent: Ilm ziyo, 2022. – 140 b.
- Jalolov J. Pedagogik texnologiyalar va pedagog mahorati. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. – 264 b.
- Jononov B. Pedagogik kompetentlik va kasbiy o'sish omillari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. – 188 b.
- Khakimov A.N. Kasbiy ta'llimda uzlksiz rivojlanishning nazariyi asoslari. – Andijon: AndMIU, 2022. – 160 b.
- OECD. Teachers and School Leaders as Lifelong Learners: TALIS 2018 Results (Volume II). – Paris: OECD Publishing, 2019. – URL: <https://doi.org/10.1787/1d0bc92a-en> (murojat qilingan sana: 14.06.2025).
- Robinson K. Out of Our Minds: Learning to be Creative. – London: Capstone Publishing, 2011. – 320 p.
- Vygotskiy L.S. Psixologiya va madaniyat. – Moskva: Pedagogika, 1991. – 328 b.